

O'ZBEK TILI NUROTA TUMAN SHEVALARINING FONETIK XUSUSIYATLARI.

Ibragimova Gulsum Nuraliyevna

*O'zbekiston Respublikasi IIV Samarqand akademik litseyi ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 10.10.2025

Revised: 11.10.2025

Accepted: 12.10.2025

Ushbu maqolada o'zbek shevashunosligi sohasida olib borilgan tadqiqot ishlaridan namunalar, erishilgan ilmiy yutuqlar, sheva leksikasiga oid o'rganilgan lug'atlardan namunalar ham qayd etildi.

KALIT SO'ZLAR:

sheva, lahja, ibora, Nurota, o'zbek adabiy tili, lug'at, qipchoq, frazema, "j"lovchilar.

Taqdim etilayotgan mazkur ishda Navoiy viloyatining Nurota tumani va ushbu tumanga tutash tumanlar Xatirchi, Konimex, Jizzax viloyatining Forish, Samarqand viloyatining Qo'shrabod tumanlari o'zbek shevalarida uchraydigan birliklar o'zbek adabiy tilida uchramaydigan ayrim so'zlar to'g'risida bahs yuritiladi.

Mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ma'ruzalaridan birida "Biz islohatlarimiz ko'lami va samarasini yana-da oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azm-u shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz"³⁴ – degan edi. Shu boisdan ham ona tilimizni o'rganishga bo'lgan talab va ehtiyoj yanada ortmoqda. Bu borada shevalarni o'rganish va chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zamonaviy tilshunoslikning talabiga aylanib bormoqda. O'zbek tili shevalari o'zaro fonetik, grammatik, leksik jihatdan farqlanadi.

³⁴ Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. Тошкент: Ўзбекистон, 2017

“Arealogiya (lot. are – maydon, hudud otdan yasalgan sifatning yunoncha logikos – soʻz, tushuncha, taʼlim soʻzi bilan birikishidan hosil boʻlgan qoʻshma soʻz) maʼlum bir hududda aynan bir hodisalarning (oʻsimlik, hayvonot, yer qatlami, yer osti va yer usti boyliklari, aholi va ularning tili va boshqalar) tarqalish xususiyatlarini oʻrganishga xos fan boʻlib, bir necha fanlarda (jumladan, botanika, zoologiya, geologiya, etnografiya, filologiya va boshqalar) arealogik yoʻnalish shaklida mavjuddir. Shuning uchun muayyan fanlarda bu tushuncha (areal lingvistika (tilshunoslik), areal botanika, areal geologiya va boshqalar) oʻz aksini topgan”.³⁵ Areal lingvistika lisoniy hodisalarning maʼlum hududlarda tarqalishi va shu asosda tillararo aloqalarni oʻrganuvchi fandır. Areal lingvistika tushunchasi va atamasi Matteo Julio Bartole (1873-1946) italyalik tilshunos) tomonidan XX asrning 40-yillarida tilshunoslikka kiritilgan boʻlsa-da, ammo aynan arealogik tadqiqotlar oʻzining uzoq tarixiga egadir. Faqat XX asr boshlaridagina tillar bilan bogʻliq hududiy masalalarni oʻrganuvchi yoʻnalish areal lingvistika emas, faqat boshqa nom lingvistik geografiya yoki geografik lingvistika atamasi ostida mashhur edi. Bu masala prof. A.Shermatov Toshkentda «Fan» nashriyoti tomonidan 1981 yilda nashr etilgan 40 betlik «Lingvistik geografiya nima?» risolasida yoritilgan. Lingvistik geografiya muammolarining XVIII-XX boshi tilshunoslari, asosan, ikki yoʻnalishda koʻproq shugʻullanganlar:

1. Tilshunoslikda keng tarqalgan shevashunoslik (dialektologiya);
2. Tillarning tasnifi jarayonidagi geografik tushunchalar (tillarning tarqalishi va qoʻllanilish hududlari).

Sheva vakillari oʻz nutqlarida xilma-xil soʻzlarni qoʻllashadi, ularning maʼlum qismi adabiy tilda ham, shevada ham ishlatilsa, baʼzi birlari faqat shevada yoki shevalararo qoʻllaniladi. Shevada yoki shevalararo qoʻllanadigan soʻzlar dialektizmlar deyiladi. Shuning uchun ham badiiy adabiyot va vaqtli matbuot tilidagi dialektizmlar, oʻzbek shevalarining lugʻat boyligi toʻla yigʻib olinmaguncha, ayniqsa, oʻzbek shevalari lugʻati tarkibidagi leksik qatlamlarning qonuniyatlari, bu qatlamlarning maʼlum chegarasi, oʻzaro miqdoriy munosabatlari va bir-biriga munosabatlari anhal etilmaguncha ayni bir tushunchani ifodalovchi shevalararo soʻzlarning adabiy tilga munosabatini chuqur ilmiy asosda aniq belgilash mumkin emas.

Hozirgi tezkor va shiddatli rivojlanish asrimizda jamiyat yuksalib, fan taraqqiy etib borayotgan bir vaqtda arealogik tadqiqotlar ham oʻz yechimini kutayotgan masalalardan biri

³⁵ Abduazizov A.A. Oʻzbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. –T.:Oʻqituvchi

sanaladi. Bugungi kunda arealogik tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida nisbatan yangi yo'nalish bo'lganligi va shu kungacha o'zbek lingvistik atlasini tuzilmaganligi bu boradagi tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi. "Areal lingvistika lisoniy hodisalarning aynan bir ma'lum hududlarda tarqalishi va shu asosda tillararo aloqalarni o'rganuvchi yo'nalishdir"³⁶. Ushbu ishimizda arealogik tadqiqotlarni keng ommaviylashtirishning zaruriy ahamiyatli jihatlari aytib o'tilgan va qilingan tadqiqot shu boradagi ishlardan biridir. Nurota tumani misolida shevalarni areal-lingvistik tahlil qilish, bu yerda istiqomat qiluvchi urug'larni aniqlash ularning tilga ta'sirini kuzatish o'zbek tilining yetakchi lahjalari sanalgan qarluq, qipchoq, o'g'uzlarning bir-biriga bog'liqligini o'rganish, til hodisalarini batafsil izohlash, birliklarning tarqalish izoglossalarini ko'rsatish hamda Nurota tumanining lingvistik atlasini tuzish maqsad qilingan.

Biz bu maqolamizda Nurota tumani shevalarining fonetik va morfologik xususiyatlari haqida to'xtalamiz. Quyida bir qancha fonetik hodisalar va o'zgarishlar haqida fikr yuritilgan.

"g" tovushining o'rniga "v" tovushi ishlatilishi: tog'- tov, sog'- sov, bog'-bov, yo'g'on- juvon, tug'moq- tuvmoq,

"o" tovushining o'rnida "u" tovushining ishlatilishi. Masalan, tovuq- tuvuq, sovuq- suvuq, qovuq- quvuq,

"v" tovushi o'rnida "b" tovushining ishlatilishi. Masalan, tovoq- toboq

Qovoq- qoboq, tarvuz- torbiz, sovun- sobin, novvot- nobot (bu o'rinda tovush tushishi hodisasi kuzatilmoqda), andava- ondaba,

"X" tovushi o'rnida "q" tovushining ishlatilishi: tuxum- tuqum,

"F" tovushi o'rnida "p" tovushining ishlatilishi: fitr- pitr, fonar- panar, tanaffus- tanapis, selean- salapan, fotiha- patiqa, salfetka-salpetka, salpitka

"a" tovushi o'rnida "o" tovushining ishlatilishi: achchiq- ochchi(bu yerda tovush tushish hodisasi ham kuzatilgan), qand- qont(bu o'rinda "d" tovushi o'rnida "t" tovushining ishlatilishi holati kuzatilgan), andaba – ondaba, mato- mota, chala- chola, dala- dola, dara- dora, hayot- hoyot, shamol-shomal, klyonka-klyanka,

"U" tovushi o'rnida "I" tovushining ishlatilishi: chuchuk- chuchchi(ushbu o'rinda tovush ortishi hodisasi ham kuzatilgan), quruq- quri, yulduz- jildiz, tarvuz- torbiz,

³⁶ Aliyev A.Yu. O'zbek dialektologiyasidan materiallar. Toshkent: Fan, 1974

“O” tovushi o‘rnida “a” tovushining ishlatilishi: botinka- patinka, fonar- panar, yumshoq- jumshaq, fotiha—patiya, operatsiya- aparasta,

“B” tovushi o‘rnida “p” tovushining ishlatilishi: botinka- patinka, chalob- chalop,

“y” tovushining o‘rnida “j” tovushining ishlatilishi: yomg‘ir- jomg‘ir, yo‘l- jo‘l, yulduz- jildiz, yumshoq- jumshaq, yuvvosh- juvosh, yog‘moq- jovmoq, yupqa- juxma, yoqa- jog‘a,

“G” tovushi o‘rnida “p” tovushining ishlatilishi: yog‘di- jopti

“B” tovushi o‘rniga “m” tovushi ishlatilishi: bunday- minday, buncha- mincha,

“e” tovushining o‘rniga “I” tovushining ishlatilishi: paket- pakit,

“q” tovushi o‘rnida “x” tovushining ishlatilishi: yupqa- juxma,

“Q” tovushi o‘rnida “g” tovushining ishlatilishi: yoqa- jog‘a,

Nutq jarayonida talaffuz qulayligiga erishish uchun ketma-ket kelayotgan tovushlarning oizaro taisiri natijasida oizgarishlarga uchrashi fonetik hodisa deyiladi.

Fonetik hodisalarga asosga qoishimcha qoishilishi bilan yuz beradigan tovush tushishi, tovush almashishi, tovush orttirilishi hodisalari kiradi.³⁷

O‘rganayotgan shevamizda ham bur qator fonetik hodisalar kuzatiladi. Bulardan biri tovush tushishi hodisasi: iliq- jili, ili so‘z oxirida tovush tushishi achchiqosh- achchosh so‘z o‘rtasida tovush tushishi sariq- sori yuvvosh-juvosh,

Tovush almashishi hodisasi: bunday- minday, buncha- mincha – ushbu so‘zlarda so‘z boshidagi “b” “m”ga almashmoqda bilakuzuk- bilayuzuk sariq- sori soch- choch selean- salapan, andava- ondaba, operatsiya- aparasta, fotiha- patya ,mato- mota, chala- chola, dala- dola, dara- dora, hayot- hoyot, zax- zak,

Tovush ortishi hodisasi: uzuk- juzuk fotiha- patya soat- sog‘at ko‘hna- ko‘na

Adabiy til va shevalarni o‘rganish ilmiy - hamda nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham unli tovushlar tarkibi bilan mustahkam bog‘langan. Tilshunoslikning barcha bo‘limlarini bir -biriga bog‘lab o‘rgangandagina ularning taraqqiyot qonunlarini to‘g‘ri va to‘liq tushunish mumkin. Morfologiyadagi egalik kategoriyalari, ularning turlanish, so‘z yasash, leksikasida esa so‘zlarning ma‘nolarini o‘rganish, so‘zlarning turli – tuman shakllarini aniqlash kabi bir qator masalalarni fonetik qonunlarini hisobga olmasdan turib tasavvur etish qiyin. Bu hol, ayniqsa shevalar uchun muhimdir.

Fonetik jarayonlar. Proteza

³⁷ Abduazizov A.A. O‘zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. –T.:O‘qituvchi, 1992.

Proteza hodisasi qipchoq guruh shevalari vakillarining talaffuzida ko‘plab holatlarda uchraydi. Ushbu shevalarda ikki yoki undan ortiq undosh tovushlar hamda ayrim sirg‘aluvchi tovushlar so‘zning boshida kelganda, talaffuzda qulaylik tug‘dirishi uchun titroq r va boshqa xil sirg‘aluvchi undosh tovushlardan oldin iu, i, o, u, y, kabi unli fonemalardan biri orttirib tallafuz qilinadi. Bunday o‘zgarishlar o‘zlashtirma so‘zlarda ko‘proq uchraydi. Masalan, ishkap-shkaf, irsq- rizq, Irisqul- rizkul, stul va stol – ustal, smeta – ismeta, sirg‘a – isirg‘a kabilar. Adabiy tilda ro‘mol, r o‘zak so‘zlari qipchoq shevalarida o‘ramal, o‘raza tarzida va boshqa ko‘plab so‘zlarda ham qo‘llaniladi.

Epiteza

Epiteza hodisasi o‘zlashtirilgan so‘zlarda mavjud bo‘lib, ular Qizilcha, Qadoq, Sovuqbuloq, Yangiturmush, Papanay kabi qishloqlar shevalari vakillarining talaffuzida aniq seziladi. Masalan, o‘zbek adabiy tilidagi bank va propusk so‘zlari ushbu qishloqlar shevasida banka, propiska tarzida qo‘llaniladi, yoki qizilchaliklar bu so‘zlarni banka, propuska deb talaffuz etadilar. Papanay shevasining vakillari ham xuddi ulardek banka hamda prapiska tarzida talaffuz etadilar.

Demak, boshqa shevalardan farqli o‘laroq, qipchoq lahjasining ushbu shevalari bu hodisani chetlab o‘tmaydi. Nurota tumani ozbek shevalarida ham ikki undosh ketma- ket, qator kelgan har bir so‘zning oldida bir unli tovush orttirish hodisasi ko‘p uchraydi. Bunday xususiyatlar Toshkent, Andijon, Uychi, Vodil, Parkent singari o‘zbek shevalari materiallarida ham uchraydi turishini mavzuga oid ilmiy adabiyotlarda ko‘rishimiz mumkin.

Epinteza hodisasi o‘zlashtirilgan so‘zlarda mavjud bo‘lib, ular Qizilcha, Hasonata, Nog‘ora, Chuya, Qoraqum kabi qishloqlar shevalari vakillarining talaffuzida aniq seziladi.

O‘zbek tilining Nurota tumani Yangibino hamda Yangiobod qishloqlari shevalarida mazkur hodisa bir muncha chegaralangandir. Masalan, Yangibino shevasi vakillarining talaffuzida boshqa shevalardagi kabi otpuskaga ,albatta, boraman, bonkadan puldi oldizma? kabi so‘zlardagina uchraydi.

Yuqoridagilar kabi epiteza hodisasi Nurota shahar shevasi vakillarining nutqida ham uchraydi. Masalan, otpuk (ad. imloda: ta‘til) – atpuska, uchastok – uchastka - uchaska, kios - kioska, propusk - propiska.

Epiteza hodisasini qator o‘zbek shevalarida uchratganimizdek, o‘zbek adabiy talaffuzida ham mavjud ekanligini qayd etmog‘imiz lozim. So‘z oxirida qatorlashib kelgan ikki undoshdan keyin a unlisini qo‘shib talaffuz qilinadi. Bu hol ko‘pincha undoshlarning

sk, nk.shakllaridan keyin yuz beradi. Masalan, otpusk - otpuska, blank - blanka, bank-banka kabi.

Shuni aytish kerakki, “1956-yilgi o‘zbek tili imlosi me‘yori qonunlashganiga qadar hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham epiteza hodisasi hisoblangan so‘zlar faqat lahja va shevalar bilan bog‘lanar edi. 1956 -yildan boshlab o‘zbek adabiy tili qoidasi qabul qilindi va to‘la rasmiy tus oldi. [34;46-53] Qisqasi, epiteza hodisasi o‘zlashtirilgan so‘zlarda ko‘proq mavjud bo‘lib, o‘zbek xalq shevalari vakillarining talaffuzida uchraydi.”³⁸

Epiteza

Epiteza hodisasi o‘zbek tilining hamma shevalarida qo‘llaniladi, ayniqsa, Qizilcha, Xo‘jobod, Soykechar, Dara, Sirtsuluv kabi shevalarda esa u yanada oydinlashadi. Masalan, adabiy tilidagi davr so‘zi Qizilcha shevasida esa do‘vir shaklida uchraydi. O‘zbek tilining Soykechar va uning atrofidagi qishloqlar shevalarida ham xuddi Qizilcha va Sovuqbuloq shevalaridagi singari epiteza hodisasi kuchli saqlangan. Masalan, iskalat - sklad, shkaladishkalad kabi. Yuqoridagilar kabi fonetik hodisalarni Qo‘shrabod tumani Jo‘sh, Urganji qishloq shevasida ham ikki undosh o‘rtasida bir i unli fonemasining orttirilib talaffuz qilinishini ko‘ramiz. Masalan, ilm- ilim, kasb- kasip, kaft- kapit kabi.

Shuningdek, o‘zbek tilining qipchoq shevalari vakillarining talaffuzida ham i, a, u unlilari chetdan qabul qilingan so‘zlarda orttirilib talaffuz qilinishi xosdir. Masalan, rus tilidan qabul etilgan traktor - tiraktir taraktur, krovat – karavat, karovat, plenum - pilinum pulinum, zveno - zuvina kabi so‘zlarda ko‘rinadi.

Epiteza hodisasi birgina o‘zbek xalq shevalari uchun xos bo‘lib qolmasdan, balki boshqa turkiy tillar uchun ham xosdir. Masalan, yoqut tilida birat - mladshiy brat, kilass – klass, kulus – klyuch, karabaat – krovati, yoqut tili shevalarida esa ispiravka – spravka, pumala - smola singarilar uchraydi.

Epiteza bir shevada ko‘proq mavjud bo‘lsa, ikkinchisida nisbatan kamroq ko‘zga tashlanadi.

Ma’lumki, o‘zbek adabiy tilida yonma - yon kelgan ikki undosh tovush o‘rtasida qipchoq shevalarida, ayniqsa, Mang‘it shevasida i, a, u, singari unli tovushlarni qo‘shib talaffuz qilinadi. Masalan, aks - akis, asl-asil, kasr - kosir, aql - aqil, krovat - karavat kabi. Biroq, o‘zbek tilining Qadoq shevasida esa bu hodisa nisbatan kamroq uchraydi. Bori ham so‘z o‘rtasi hamda so‘z oxirida yonma-yon kelgan undoshlar orasiga bir unli qo‘shib

³⁸ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: 2000

talaffuz qilish natijasida vujudga keladi. Masalan, o'g'limni kanspek daftari yo'q kabi. Qisqasi, ushbu shevalar maktab, maorif va matbuotning ta'siri tufayli o'zbek xalq shevalarida tobora chegaralanib bormoqda. Ular hozirgi kunda keksalar nutqida uchraydi. O'quvchi, talaba va boshqa ma'lumotli kishilar nutqida borgan sari kamayib bormoqda.

Sinkopa

Sinkopa hodisasining hosil bo'lishi bevosita urg'u masalasi bilan bog'langan holda bo'ladi. Urg'usiz bo'g'inlarda bir unli fonemaning tushib qolishi sinkopa hodisasi hisoblanadi. Masalan, maorif – marup// marip, Fotima – potma, silos – sles kabi. O'zbek tilining Qizilcha, Xo'jobod, Soykechar, Dora, kabi shevalarini olaylik. Bu shevalar vakillarining talaffuzida ayrim so'zlardagi ba'zi tovushlarni ishlatmaslik hollari (sinkopa) ko'plab uchraydi. Masalan, Papanay shevasida: kutubxona – biblioteka – biblateka, billiard – biliyart (Sh. Afzalov kuzatishicha) tarzida qo'llaniladi. Shuningdek, hozirgi-kelasi zamon fe'llarining ikkinchi bo'g'inidagi i, iu, u, u unlilar talaffuzda bevosita yoki bilvosita tushib qolishi natijasida paydo bo'ladi. Masalan, chaqiraman – chaqraman, yuguraman – yugraman, o'tiraman – o'traman kabi.

Yuqorida bayon etilgani kabi bo'yin, og'iz, egin, burun, qorin singari bir qator so'zlarning ikkinchi bo'g'inidagi unli tovush shu so'zlarga yangi bo'g'inlarga egalik qo'shimchasi qo'shilgach, urg'uning bevosita yangi bo'g'inga ko'chishi bilan kuchsizlanadi hamda tushib qoladi. Bu adabiy til uchun xosdir. Masalan, buyin – buyni, og'iz – og'zi, egin – egni, burun – burni, o'rin – o'rni, qorin – qorni kabi. O'zbek xalq shevalari materiallarida bu hodisa keng miqyosda ishlatiladi.

Sinkopa hodisasi o'zbek tilining qipchoq hamda qorluq-chigil- uyg'ur lahjalari materiallarida ko'proq hollarda bir xil xususiyatga ega bo'ladi. Masalan, adabiy tilda «xaridor» so'zi qipchoq shevalarida hardar – hariydar, Toshkent shevasida xardar, Namangan shevasida xardor shakllariga ega bo'ladi. Shuningdek, so'z o'rtasida yonma-yon kelgan ikki unlidan birining kuchsizlanishi oqibatida va ikkinchisi cho'ziq talaffuz qilinadi. Yuqoridagi kabi holatlar turli o'zbek shevalari materiallarida ham uchraydi. Lekin sinkopa o'zbek adabiy tili tarixi taraqqiyoti bosqichida mavjud bo'lib, adabiy til uchun ham o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida qaraldi va shunday hisoblanadi.

APOKOPA

So'z oxirida tovushlarning tushib qoldirilishi hamda urg'uning doimgidan boshqacha bo'lganligi sababli yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatlarda so'z oxirida

urgʻusiz unli yoki boʻgʻin talaffuzda kuchsizlashadi va natijada tushib qoldiriladi. Bu apokopa hodisasi sifatida qaraladi.

Maʼlumki, apokopa hodisasi butun oʻzbek shevalari uchun xos hodisalardan biri sanalib, qisman oʻzbekcha, ayniqsa, baynalminal soʻzlarda koʻplab uchraydi. Shuningdek, qoraqum, Papanay, Sovuqbuloq, Suvliq, Tegirmon kabi qishloq shevalarda bu fikr yanada oydinlashadi.

Oʻzbek tilining qipchoq shevasida oʻzlashtirilgan ayrim soʻzlarda unli tovushlar soʻz oʻrtasida ham, tushib qoladi. Masalan, minuta – minut, gazita – gezit, mashina – mashin, aptika – aptik kabi. Sovuqbuloq shevasida ham minut, gazit, moshin, aptik tarzida ishlatiladi. Masalan, gazitti oldi, mashin minan olip keldi kabi. Shuningdek, gazeta – gezit, minuta – minit, mashina – moshin, kvartira – kuvirtir, telegramma – telegram kabi bir qancha misollarda kuzatish mumkin. Apokopa hodisasi Qizilcha, Temirqovuq kabi qishloqlar, Qoʻshrabod tumani ayrim jamoa xoʻjaliklaridagi qishloq shevalarida hamda Uyshun shevasi vakillari talaffuzida bir a unlisining tushib qolishdan hosil boʻladigan oʻziga xos xususiyatlardan biri hisoblanadi. 1905 – 1917 yillardagi adabiy til materiallarini olaylik. Bu davrda ham, tarixiy manbalardan aniqlanishicha, apokopa hodisasi yuz bergan. Jumladan, oʻsha vaqtlarda rus tili orqali kirib kelgan kvartira, palata, fabrika, granat, kontora, minuta soʻzlari kuvartir, palat, pabrik, giranat, kontor, minoʻt shakllarida ishlatilgan.

ELIZIYA

Eliziyaning hamma turlari oʻzbek lahja va shevalari uchun xos boʻlib, ularning deyarli hammasi ham uchraydi:

A) eliziyaning birinchi turiga: oʻta olmaydi – otolmaydi// otelmeydu, shu yerda – shirda, bu yoqqa – biyaqqa, shu yoqqa – shiyaqqa, bu yer – biyir kabilar kiradi;

Men shiyaqqa boraman (Qadoq), sen shiyda tiribtur (Jizzax), biyaqa ke, iyaqqa keti – kattena, kattata (Jilontomgʻali) kabi. Eliziyalanish hodisasini Urgut va Samarqand shevalarida ham uchratamiz: bora olmay – borolmay, bu yoqdan – baqdan, olti oy – oltoy, yoza oladi – yozoladi, yozayotgan – yozoqqan, qila oladi – qiloladi soʻzlarida u va a unilari toʻliq eliziya hodisasiga uchrayapti. Masalan, bizlar kecha borolmay qoldiq shiyga//shirga bizardi tushurdi, soʻngra bu yozayotgan kishi aytti biyirga ke (Qizilcha); oltoygacha moshin haydamayman, shiyaq qarap kelaberdi. Mardonqul xatti yozoladi (Sovuqbuloq) kabi.

Bu hol Qo'shrabod tumani qipchoq shevalarida ham mavjud. Masalan, shaxta, manaxta, shiyaqa, biyaqa, ketuvdi, ekkilevdi, aytqandim kabilar Navoiy viloyati Nurota tumanidagi Qizilcha shevalari vakillarining talaffuzida ham unli tovush bir vaqtda yonma-yon kelsa, biri tushib qoladi. Masalan, bora oladi – baraladi, qola oladi – qalaladi kabilar.

B) ikkinchi turiga: bu yerga – biyirga, u yer – uyir, qaysi yer – qeyir (Qadoq) kabilarni ko'rsatish mumkin

V) eliziya hodisasining bu turi ham o'zbek xalq shevalari materiallarida uchraydi. Bu to'liqsiz fe'llarning mustaqil so'zlar bilan birikma holda kelishi bilan bog'liqdir: bo'lar ekan – bolaykan, bir edi – biridi, shuning uchun – shuniychun, olgan edim – olg'niydin kabilar. Shevadagi kelgan edim – kelganiydin, yuvib kel – yubke, o'qir ekan – o'qiykan kabilar ham eliziya hodisasiga aynan misol bo'la oladi.

Yuqoridagi kabi xususiyatlar o'zbek tilining Nurota tumanidagi qipchoq shevalarida ko'proq uchraydi bunday paytda birinchi so'zning oxiridagi unli fonema tushib qoladi va har ikki so'z va uning o'zagi, bir bosh urg'u orqali aytiladi. Masalan, to'riq ot, to'rat – to'riat; Solih aka – Soli aka – Salaka, Malla aka – Mallaka – Malaka kabilar deyarli hamma qipchoq shevalari uchun xosdir.

Bunday xususiyatlar arab tilidan kirgan va birdan ortiq o'zakdan yasalgan kishi otlarining ko'pchiligida ham uchraydi. Masalan, Abdusattor – Apsattar – Apsottor, Podsho Ali – Poshshali// Poshali, Abdualim – Abdalim// Abdelim, Abdulla aka// Abdiaka, Abdusalom// Apsalam singari.

Yuqoridagilardan tashqari, o'zlarining paydo bo'lish yo'llari ham xarakterli bo'lgan eliziya hodisasining mavjudligi ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Masalan, Toshkent, Jizzax, Shahrisabz, Qo'qon kabi shevalarda ana shu – anshi, ashi tarzida uchraydi. Andijon shevasida esa ono shu – enshi/ashi shakliga ega bo'ladi. O'g'uz guruh shevalari materiallarida ene shu/ enshu deb ishlatiladi. Qipchoq shevalaridagi nimish – nima ish, boxda ochilgan – bog'da ochilgan, yek qolini – ikki qo'lini, shaqqarap – shu yoqqa qarab kabilar ham eliziya hodisasi bilan bevosita bog'liqdir.

“V. V. Reshetov o'zbek tilining qipchoq shevalarida eliziya hodisasining bir muncha kengroq qo'llanilishini alohida ta'kidlab o'tgan. Chunonchi: hardar – haridar, Namanganda – xordor, adabiy tilda – xaridor, xemsha – xemisha, adabiy tilda – hamisha. qorluq-chigil-uyg'ur shevalarida esa oltov – oltov. Eliziya hodisasi boshqird, turkman, tatar tillari materiallarida ham mavjud. Chunonchi, boshqird tillarida kilgeynom – kelgennem, turkman tilida: meninchun – meninuchin, tatar tilida: nerse – neirsa kabi. Shuningdek,

ozarbayjoncha: abri – abiri, anri – anari, grov – girov no‘g‘ay xalq shevalarida: burni – buruni, vaqti – vaqio‘ti brev – biravi, oturshi – oturushi kabi.”³⁹

Undoshlar tarkibi. O‘zbek shevalaridagi undosh tovushlar, asosan, adabiy tildagi holatga mos keladi. Unda hozirgi adabiy tildagi ayrim undoshlar qo‘llanilmaydi. Shevalardagi *u*, *f*, *j* undoshlari shular jumlasidandir. O‘zbek adabiy tilidagi *u* undosh tovushi bu shevalarda ham *ts* yoki *s* undoshlari tarzida qo‘llaniladi. Shevalarda alohida fonema sifatida ko‘zga tashlanmaydi hamda *p* undoshi bilan almashinib keladi. U ba‘zi bir yangi undov so‘zlarda hamda o‘zlashtirilgan bir necha so‘zlarda ham uchraydi, xolos. Samarqand – Buxoro shevalari esa bundan mustasnodir. Adabiy tilimizdagi *j* undoshi shevada *dj* va *j* deb ikki xilda qo‘llaniladi. *Dj* – undoshi boshqa tillardan fors, arab va rus tili orqali kirib kelgan ba‘zi bir so‘zlardagina qo‘llaniladi. *J* undoshi qipchoq guruhi shevalarida boshqalarga qaraganda ko‘proq ishlatiladi. Qipchoq guruhini tashkil etuvchi shevalarning ayrimlarida *x* tovushi o‘rnida *q*, boshqa birlarida esa *k* undoshi o‘rnida *q* undoshi keladi. Qolgan undosh tovushlarning barchasini o‘zbek adabiy tilidagi holatdan deyarli farq qilmaydi. Ularda uchraydigan ba‘zi o‘zgarishlarga duchor bo‘lib turadi.

Anakopa.

Anakopa so‘z oxirida keluvchi undosh tovushlarning tushib qolish hodisasidir. Bu fonetik hodisa o‘zbek lahja va shevalaridaham adabiy tilda ham mavjud. Jumladan, Nurota shevasida *ll*, *ss*, *mm*, *zd*, *st* kabi undosh fonemalar o‘zaro birikib kelganida, o‘sha biriktirilgan undoshlardan biri tushirib talaffuz etiladi. Masalan, gramm – gram, poyezd – poyz kabi.

Ayrim shevalarda bir bo‘g‘inli so‘zlar oxirida anakopa hodisasi uchraydi: to‘rt – to‘r, qasd – qas, rost – ros, kel – ke, do‘st – do‘s, g‘isht – g‘ish kabi ayrim so‘zlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. Тошкент: Ўзбекистон, 2017
2. Abduazizov A.A. O‘zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. –T.:O‘qituvchi
3. Aliyev A.Yu. O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. Toshkent: Fan, 1974

³⁹ Enazarov T., Karimjonova N. va boshqalar. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: Universitet, 2012

-
4. Abduazizov A.A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi.T.:O'qituvchi, 1992.
 5. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi.Toshkent: 2000
 6. Enazarov T.,Karimjonova N. va boshqalar. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent:Universitet, 2012
 7. Ferdinand do' Sossyur, Mirzayev I.(tarjimon) Umumiy tilshunoslik kursi. Toshkent: 2019
 8. Hojiyev A.Toshkent: 1993
 9. Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: 2005
 10. Jo'rayev B. O'zbek adabiy tili va o'zbek dialektlari.-Toshkent: 1963
 11. Jo'rayev B.Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari.Toshkent: Fan,1969